

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03G‘10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XAMZAYEV AZIZBEK NEMATOVICH**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING FOND BOZORIDAGI  
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po ekonomicheskim  
naukam**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in  
Economic Sciences**

**Xamzayev Azizbek Nematovich**

Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish..... 3

**Xamzaev Azizbek Nematovich**

Совершенствование деятельности акционерных обществ на фондовом  
рынке..... 25

**Khamzayev Azizbek Nematovich**

Improving the activities of joint-stock companies in the stock  
market..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03G‘10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XAMZAYEV AZIZBEK NEMATOVICH**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING FOND BOZORIDAGI  
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2594 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Karlibaeva Raya Xodjabaevna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, profecor

**Rasmiy opponentlar:** **Tursunov Bobur Ortiqmirzaevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Alladustov Rustam Djonmurodovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49. Tel.: (99871) 239-01-49, 239-28-78, faks: (99871) 239-27-23, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49. Tel.: (99871) 239-01-49, 239-28-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda “jahon iqtisodiyotida umumiy qiymati 110,2 trillion dollarga teng 80 ga yaqin yirik fond birjalari faoliyat yuritmoqda ulardan dunyoning ikki yirik birjalari Nyu-York (NYSE) va Nasdaq fond birjalari jahon bozor kapitallashuvining 42,4 foizini nazorat qilmoqda. Xususan, iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan Hindiston davlatining kapitallashuvi sezilarli o‘shishni ko‘rsatib, 2023 yilda Buyuk Britaniyani ortda qoldirishga qaramay, AQSh kapital bozorlari katta farq bilan yetakchilik qilishda davom etmoqda”<sup>1</sup>. Shuningdek, “Jahon ichki qimmatli qog‘ozlar bozorining qiymati 2013-yildagi 65,04 trillion dollardan 2022-yilda 98,5 trillion dollargacha o‘ydi. 2023-yil iyul holatiga ko‘ra, jahon fond birjalarida ro‘yxatga olingan mahalliy kompaniyalarning umumiy bozor kapitallashuvi 112 trillion AQSh dollarini tashkil etdi”<sup>2</sup>.

Jahon fond bozori amaliyotida ilg‘or va zamonaviy tajribani o‘rganishga hamda aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatida sun‘iy intellekt bilan ta‘minlangan texnologik qimmatli qog‘ozlar, tovar bozori kapitulyatsiyasi bilan bog‘liq muammolarni hal etish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta‘minlashga erishish yo‘llarini aniqlash, aksiyalar narxi barqarorligini ta‘minlash, fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari narxining o‘zgarish dinamikasiga ta‘sir qiluvchi omillarni tahlil qilish metodologiyasini takomillashtirish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini rivojlantirish hamda mamlakatimizda kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 mln. AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish ko‘rsatilgan”<sup>3</sup>. Bunda mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarini va ulardagi ulushlar (aksiyalar)ni, shu jumladan, fond birjasi orqali xususiylashtirish kabi bir qator choralarni ko‘rish ko‘zda tutilgan. Xususan, kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo‘lida davlat qimmatli qog‘ozlarini norezidentlar tomonidan xarid qilishga ruxsat berish, korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorida likvidlikni oshirish, davlat ulushi mavjud korxonalarda xususiylashtirish jarayonlariga xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlarini jalb qilish, rezidentlar tomonidan chet mamlakatlardagi aktivlarni sotib olish va ularni deklaratsiya qilish tartibini belgilash mo‘ljallangan. Kapital bozori infratuzilmasini yaxshilash, davlat qimmatli qog‘ozlar bozorini ravnaq toptirish, aholining moliyaviy savodxonligini, professional ishtirokchilarning malakasini oshirishga alohida e‘tibor qaratilishi qayd etilgan.

<sup>1</sup> <https://www.tinkoff.ru/invest/social/profile/TrueProphet/655cb0c6-4e8e-48bd-b0de-bc40bd024983/>

<sup>2</sup> <https://www.statista.com/statistics/710680/global-stock-markets-by-country/>

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 12-fevraldagi PF-6167-son “Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-son “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ 291-son “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari” doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish ilmiy-nazariy jihatlarini ko‘plab xorijlik olimlarning tadqiqot yo‘nalishidir. Bu borada Alyoxin B.I., Dj.Beyli, E.Bredli, R.Breyli, R.Veytilingem, B.Vilyams, S.Mayers, K.Morris, U.O.Nila, E.Peters, E.Rode, R.Rozen, A.Sigel, Dj.Tyulz, Dj.Soros, F.Faboss, Dj.Xiks, U.Sharp kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganilgan<sup>4</sup>. Sanab o‘tilgan tadqiqotchilarning iqtisodiyot faniga qo‘shgan salmoqli hissasiga qaramay, qimmatli qog‘ozlar va fond bozorini moliyalashtirish, ular faoliyatini tahlil qilish, baholash, tartibga solish va nazorat qilish masalalarining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida bu borada G.Aleksandr, A.Basov, V.Galanov, Dj.Gitman, A.Kilyachkov, V.Kolesnikov, Ya.Mirkin, A.V.Navoy, E.Petere, B.Rubsov, V.Torkanovskiy, O.Xmiz, L.Chaldaeva, N.Berzon singari olimlar<sup>5</sup> tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida aksidorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyati o‘rganilmagan.

O‘zbekiston fond bozorini rivojlanmaganligiga ta‘sir etuvchi davlat organlarining aralashuvi, yirik aksiya paketlariga davlat egalik qilishi, aholining qimmatli qog‘ozlar va undan daromad olish mumkinligi haqida yetarlicha

<sup>4</sup> Alyoxin B.I. Рынок сменных бумаг (введение в фондовые операции). М.: Финансы и статистика, 1991. – 230s.; SHarp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investisii: Per. s angl. – М.: INFRA-M, 1999. — XII, 1025 s.; Navoy A.V. Структурный анализ международного движения капитала //Дengi i kredit. – М., 2007. –№1. –44 s.; Breyli Richard, Mayers Styuart Prinsipy korporativnykh finansov: Per. s angl. – М.: Olimp-biznes, 2004;

<sup>5</sup> Mirkin YA.M. Рынок сменных бумаг России: vozdeystvie fundamentalnykh faktorov, prognoz i politikarazvitiya. – М.: Alpina Publisher, 2002. -578 s.; Rubsov B.B. Современные фондовые рынки. -М.: AlpinaBiznes Buks, 2006. -382 s.; Varinov E.A., Хмыз O.V. Рынки валютные и сменных бумаг. – М.: Ekzamen, 2001. – 608 s.; Сменные бумаги: Uchebnik/Под red. V.I. Kolesnikova, V.S. Torkanovskogo. 2-eizd., pererab. i dop. – М.: Финансы и статистика, 2000. – 448 s. Kilyachkov A.A., CHaldaeva L.A. Рынок сменных бумаг i birjevoe delo. – М.YUrist’ 2005. — 687 s.; Berzon N.I. i dr. Fondovyy rynek: Uchebnoe posobie dlya vuzov ekonomicheskogo profilya. – 2-e izd. – М.: Vita-Press, 1999. – 400 s.;

tasavvurga ega emasligi, infratuzilma obligasiyalarining muomalada yo‘qligi, qimmatli qog‘ozlardan daromad olishni ta’minlovchi va kafolat beruvchi infratuzilma sub’ektlarining rivojlanmaganligi kabi muammolar yetarlicha tadqiq etilmagan.

Fond bozori uning rivojlantirish yo‘llari, qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini takomillashtirishning umumiy jihatlari I.Butikov, M.Xamidulin, Sh.Shoh’azamiy, U.Alieva, N.Karimov, F.Mirzaev, X.Xudoyqulov, U.Xalikov, A.Xo‘jamurodov va boshqa olimlarning<sup>6</sup> ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rsatib berilgan.

Shu bilan birga, hozirgi O‘zbekistonning iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonida aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish, bozorni rivojlantirishda infratuzilma faoliyatini samaradorligini oshirish, risklarni boshqarish, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, institutsional investorlarning rolini oshirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga sabab bo‘ldi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy ishlari rejasining “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faolligini iqtisodiy mohiyati va mazmunini ilmiy-nazariy asoslarni tadqiqi etish;

aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini tasniflanishi va uni shakllanishining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;

aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini xorij tajribasini o‘rganish asosida O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini belgilash;

aksiyadorlik jamiyatlarining institutsional asoslari hamda iqtisodiy, texnik va funksional tahlil qilish;

aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida omillar ta’sirini baholash;

aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini davlat tomonidan

---

<sup>6</sup> Xamidulin M.B Razvitie finansovogo mexanizma korporativnogo upravleniya, Avtoreferat diss... doktora. ekon. nauk.-Tashkent, BFA, 2009; Butikov I.L. Problemy formirovaniya i funkcionirovaniya rynka sennykh bumag v Uzbekistane, Avtoreferat diss... doktora. ekon. nauk.-Tashkent, BFA, 2009; SHoha’zamiy SH.SH. Metodologicheskie osnovy i prioritety strategicheskogo razvitiya rynka sennykh bumag v Uzbekistane, Avtoreferat diss...doktora. ekon. nauk.-Tashkent, BFA, 2011; Alieva U.M. Puti sovershenstvovaniya funkcionirovaniya infrastruktury rynka sennykh bumag: Avtoreferat diss.... kand. ekon. nauk.-Tashkent, BFA, 2008. Xo‘jamurodov A.J. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish. Avtoreferat PhD. Toshkent, TDIU, 2019; Xudoyqo‘lov X.X. Aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalar qiymatini baxolashning metodologiyasini takomillashtirish. Ikt. fan. doktori. (DSc)...avtoref. — T., 2021.-69 b.; Xalikov U.R. O‘zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish. Ikt. fan. buy. fal. dok. (PhD)...avtoref. -T., 2017.;

tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish;

aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini rivojlantirish strategiyasini belgilash va institutsional investorlarning rolini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib "Toshkent" respublika fond birjasi va aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish jarayonlarida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tizimli yondashuv, tahlil va sintez, funksional va qiyosiy tahlil, guruhlash, prognozlash, iqtisodiy jarayonlarni anglashni mantiqiy xulosalash, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, korrelyatsion va regression, statistik tahlil va boshqa usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tijorat banki aksiyalarini fond birjasida birlamchi ommaviy joylashtirishda aksiyalar uchun dastlabki narx chegaralarini andarrayterlar tomonidan aniqlash aksiyalarini sotib olish bo'yicha arizalarni yig'ish uchun narx chegaralarini aniqlash va qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish narxini boshqaruv organi bilan kelishish imkonini berishi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari bo'yicha "Toshkent" RFB savdo maydonchasi orqali elektron auksion savdoni amalga oshirish barcha investitsiya vositachilari va ularning mijozlari uchun shaxsiy kabinet yaratish orqali buyurtmalarni real vaqt rejimida beg'araz asosda qabul qilish, investorlarni identifikatsiya qilish, investitsiya vositachilari bilan tegishli shartnoma tuzish, depo hisobvarag'ini ochishda teng imkoniyatni ta'minlashi asoslangan;

korporativ obligatsiyalarni chiqarish uchun talab qilinadigan ta'minot talabini bekor qilish orqali aksiyadorlik jamiyatlari korporativ obligatsiyalarining emmissiya jarayonini soddalashtirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari qiymatining o'sishini o'zgarmas effektlar regression ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faolligini rivojlantirishning ahamiyati va muhimlik darajasi asoslab berilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faolligini hozirgi holati tahlili o'rganib chiqilgan va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faolligini ta'minlashning ekonometrik tahlili etilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertasiyada O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi va Iqtisodiyotva moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, "Toshkent" Respublika fond birjasi, Markaziy depozitariyning moliyaviy, statistik va buxgalteriya hisobotlari,

muallif tomonidan shakllantirilgan birlamchi ma'lumotlari natijalaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati fond bozori aksiyadorlik jamiyatlarini faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan yangi metodologik yondashuvni qo'llashda foydalaniladi. Taklif etilgan metodologik vositalarni keng qo'llash orqali fond bozorida qimmatli qog'ozlar savdo hajmini, likvidligini oshirishning va bu borada rivojlanish dasturlari hamda axborot bazalarini shakllantirish uchun asos sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston fond bozori faoliyati rivojlanishining konseptual asoslari, metod va modellarini takomillashtirishda ham qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, aksiyadorlik jamiyatlarini fond bozoridagi faoliyatini rivojlanishining o'ziga xos jihatlari, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi munosabatlarini, Respublika fond birjasining xalqaro bozorlardagi nufuzini oshirish, unda o'z mavqeyini o'stirishning strategik maqsadlarini aniqlash, bular asosida fond bozori subyektlarining istiqbolli dasturini shakllantirish va prognozlashda foydalaniladi. Aksiyadorlik jamiyatlarini fond bozoridagi faolligini oshirish bo'yicha tavsiyalar, Respublikada aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy salohiyatini yanada oshirish borasida qabul qilinayotgan qarorlar va maqsadli dasturlarni shakllantirishda foydalaniladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faolligini takomillashtirish boyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banki aksiyalarini fond birjasida birlamchi ommaviy joylashtirishda aksiyalar uchun dastlabki narx chegaralarini anderrayterlar tomonidan aniqlash aksiyalarni sotib olish boyicha arizalarni yig'ish uchun narx chegaralarini aniqlash va qoshimcha aksiyalarni joylashtirish narxini boshqaruv organi bilan kelishish imkonini berishi yuzasidan taklifi "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki faoliyatida qo'llanilgan. ("Agrobank" ATBning 2024-yil 9-noyabrdagi 13-17-1352-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki aksiyalarini sotib olish bo'yicha arizalarni yig'ish uchun narx chegaralarini aniqlash va qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish narxini boshqaruv organi bilan kelishish imkonini bergan;

aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari bo'yicha «Toshkent» RFB savdo maydonchasi orqali elektron auksion savdoni amalga oshirish barcha investitsiya vositachilari va ularning mijozlari uchun shaxsiy kabinet yaratish orqali buyurtmalarni real vaqt rejimida beg'araz asosda qabul qilish, investorlarni identifikatsiya qilish, investitsiya vositachilari bilan tegishli shartnoma tuzish, depo hisobvarag'ini ochishda teng imkoniyatni ta'minlashi taklifi "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki faoliyatida qo'llanilgan. ("Agrobank" ATBning 2024-yil 9-noyabrdagi 13-17-1352-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida barcha investitsiya vositachilari va ularning mijozlari uchun shaxsiy kabinet yaratish orqali buyurtmalarni real vaqt rejimida beg'araz asosda qabul qilish, investorlarni identifikatsiya qilish, investitsiya vositachilari bilan tegishli shartnoma tuzish, depo hisobvarag'ini ochishda teng

imkoniyat ta'minlanishiga xizmat qilgan;

korporativ obligatsiyalarni chiqarish uchun talab qilinadigan ta'minot talabini bekor qilish orqali aksiyadorlik jamiyatlari korporativ obligatsiyalarining emmisiya jarayonini soddalashtirish taklifi "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki faoliyatida qo'llanilgan. ("Agrobank" ATBning 2024-yil 9-noyabrdagi 13-17-1352-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida fond bozorida obligatsiyalar bilan bog'liq savdo hajmini ortishiga va aksiyadorlik jamiyatlarini fond bozoriga qarz instrument orqali faolligini oshirishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari qiymatining o'sishini o'zgarmas effektlar regression ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish taklifi "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki faoliyatida qo'llanilgan. ("Agrobank" ATBning 2024-yil 9-noyabrdagi 13-17-1352-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aksiyadorlik jamiyatning kapital rentabelligi va aktivlar rentabelligini hamda jamiyatning sof foydasini o'sish dinamikasini baholash imkoniyatini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ishlar, shundan 6 ta mahalliy jurnallarda, 3 ta xalqaro jurnallarda maqola va tezaslar, 8 ta ma'ruza tezislari chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 125 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Aksiyadorlik jamiyatlari fond bozoridagi faoliyatining ilmiy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi faoliyatining iqtisodiy mohiyati va mazmuni, fond bozori kapital bozorining tarkibiy qismlari va fond bozorida ilg'or xorij tajribalari va xorijiy emitentlar amaliyoti qiyosiy tahlil qilingan va ularning amaliy ahamiyatiga baho berilgan.

Fond bozori rivoji iqtisodiy taraqqiyotga ham uzviy ravishda xizmat qiladi. Iqtisodiyot rivoji esa ijtimoiy sohaning taraqqiyotini jadallashtiradi. Ketma-ketlik oxir oqibat inson qadri yuksalishini ta'minlaydi. Bunday o'ziga xoslik shundaki, institutsional va investorlarning moliya bozoridagi faolligi aholi daromadliligiga

ham xizmat qilishi ham ayni xaqiqat.

Umumiy holda shuni qayd etishimiz lozimki, qimmatli qog'ozlar moliyaviy instrumentlar sifatida moliya bozorida keng qo'llanilsada, ko'plab tadqiqotlar ham moliya bozori, ham kapital bozori, ham qimmatli qog'ozlar bozori instrumentlari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jihat moliya bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, kapital bozorining o'zaro farqli jihatlarini ham tadqiq qilishni shart qilib quyadi.

Sohaga doir tadqiqotlarda moliya bozori bank va nobank moliya bozoriga ajratiladi. B.Koumede, O.Denk, P.Hoellerlar "iqtisodiyotni uzoq muddatli investitsiyalar bilan ta'minlash nobank moliya bozorining asosiy funksiyasi sifatida alohida qayd etiladi va bunda bank sektorining faol roli shubxa ostiga olinadi"<sup>7</sup>. Lekin bunda qayd etib o'tishimiz lozimki, moliya bozorida kredit institutlari, ya'ni banklar va qimmatli qog'ozlar bozorining o'zaro raqobat asosida faoliyatining tashkil etilishi iqtisodiy taraqqiyot uchun nixoyatda muhimdir.

Tadqiqotlar, nazariy va amaliy tahlillar asosida moliya bozorining muhim tarkibiy qismi hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozori holati ma'lum jarayonlarda nafaqat moliya bozoridagi holatni o'zida aks ettirishini, balki butun iqtisodiy vaziyatni o'zida namoyon qilishini ta'kidlashimiz lozim. Qimmatli qog'ozlar aynan moliyaviy instrumentlar sifatida investitsion faoliyat va kapital jalb qilishning asosi hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlar qimmatli qog'ozlar mazmun-mohiyatini turli yondashuvlar asosida izohlashgan. Xususan, I.L.Butikov "Qimmatli qog'ozlar — bu xujjat (blankli) shaklda yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotlar (depozitariylar)dagi hisobraqamlarda yozuvlar ko'rinishida alohida usul bilan tasdiklanadigan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qarz yoki aksiyadorlik kapitali shaklida jalb etiladigan mablag'larni jalb qilish, qayta taqsimlash va qaytarib to'lash sohasidagi mulkiy hamda u bilan bog'liq nomulkiy xuquqlardir"<sup>8</sup> deb ta'riflaydi. Bunda shuni ta'kidlashimiz lozimki, bugungi kunda blankli qimmatli qog'ozlar mavjud emas va qimmatli qog'ozlar faqat elektron tarzda muomalada buladi. Mulkiy jihatdan qimmatli qog'ozlar qiymatga ega va bu qiymat nominal qiymat hamda bozor qiymatida sifatida amaliyotda namoyon buladi.

Amerikalik iqtisodchi olimlar Frederic S.Mishkin va Stanley G.Eakins "Qimmatli qog'oz (moliyaviy instrument deb ham ataladi) emitentning kelajakdagi daromadlari yoki aktivlari (har qanday moliyaviy da'vo yoki egalik xuquqiga ega bo'lgan mulk qismi) bo'yicha da'vodir"<sup>9</sup>, deya ta'rif beradi.

Ilmiy ishimizda qimmatli qog'ozlarning turlariga to'xtalib o'tamiz. Bunda aksiyalar, xususan oddiy va imtiyozli aksiyalar hamda korporativ obligatsiyalarga e'tibor qaratamiz.

---

<sup>7</sup> Coumede, B. Finance and Inclusive Growth / B. Coumede, O. Denk, P. Hoeller // OECD Economic Policy Paper. 2015.-№ 14.-46 p.

<sup>8</sup> Butikov I. Рынок ценных бумаг. Учебник. – Т.: Konsauditinform, 2001. — 496 b.

<sup>9</sup> Frederic S. Mishkin and Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. USA: Pearson, 2018. — P. 42 (704). Mishkin and Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. US/V Pearson 2018 -P 4'

Qimmatli qog'ozlar turlari bo'yicha xususiyatlari<sup>10</sup>

Xususiyatli jihatlar	Oddiy aksiya	Imtiyozli aksiya	Korporativ obligatsii
Aksiyadorlik jamiyatn faoliyatida ishtiroki	Ustav kapitali shakllantiriladi, Barcha masalalarda ovoz berish huquqiga ega	Ustav kapitali shakllantiriladi Cheklaigan masalalarda ovoz berish xuquqiga ega	Karz kapitali jalb qilish ga xizmat qiladi. Kech qanday ovoz berish masalasi kUril maydi
Yuzaga keladigai munosabat	Ulushdorlik	Ulushdorlik	Qarzdorlik
Daromadlilik	Belgilanmagan, aksiyadorlar umumiy yigilishi qarori asosida to'lab beriladi	Qat'iy belgilangan, odatda ustavda aksiya nominal qiymatiga nisbagan foizda belgilab kuyiladi	Kupon stavka emissiya risolasida qat'iy belgilab quyiladi. Kuponsiz holatda nominaldan past joylashtiriladi
Risk darajasi	Yuqori	o'rtacha	Past
Amal qilish muddatn	Muddatsiz	Muddatsiz	Muddatli


Fond bozorining alohida segmenti sifatida obligatsiyalar bozori qarz instrumentlari muomalasini tashkil etishi orqali nstikbolda aksiyalar bozori rivoji uchun ham ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda emitentlar tomonidan oddiy obligatsiyalar, maxsus birja obligatsiyalari, tijorat obligatsiyalari, xalqaro bozorlarda joylashtiriluvchi evroobligatsiyalar, yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun yashil obligatsiyalar muomalaga chikaralishi va joylashtirish orqali kapital jalb qilinishi mumkin. Daromad belgilab quyilishi bois korporativ obligatsiyalar bozori rivojlanish imkoniyatlari yuqori, lekin bunda ham inflyatsiya omili hisobga olinishi lozim.

Dissertatsiyaning “**Aksiyadorlik jamiyatlari fond bozorida faoliyatining amaldagi holati tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlarining aksiya va obligatsiyalarini fond bozorida tahlili, O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorida ishtiroki tahlili va aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozorida faoliyatini ekonometrik tahlili bayon qilingan.

Ma'lumotlaridan ayon bo'lmoqdaki, dunyoning barcha mintakalarida global pandemiyadan so'ng 2021-yilda IPO amaliyotlari nagijasida kapital jalb qilish keskin oshgan bo'lsada, 2022-yilda bu ko'rsatkich barcha mintakalarda keskin pasaygan. Ayniqsa Amerikada 2021-yilda muvaffaqiyatli IPO amaliyotlari natijasida 350 milliard AQSh dollariga teng kapital jalb qilingan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 26 milliard AKSh dollarini tashkil etgan. Shubhasiz, mazkur pasayishlarga global fond bozorida pasayishlar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, fond bozorida pasayishlar sharoitida aksiyalarni ommaviy


<sup>10</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan

joylashtirish hech qachon tavsiya etilmaydi. Chunki iqtisodiyotning joriy holati aksiyalarni ommaviy joylashtirishga chiqish vaqtini belgilashda muhim omillardan biridir.



**1-rasm. 2018-2022 yillarda o‘tkazilgan global IPOlar soni dinamikasi<sup>11</sup>**

Oxirgi besh yillik tahlillar ko‘rsatmoqdaki, aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlari son jihatidan 2021 yil keskin o‘shib, 2436 nafarga yetgan. Lekin 2022 yilda esa yuqorida ta’kidlaganimizdek, son jihatidan ham keskin pasayib 1333 ta IPO amaliyoti o‘tkazilgan.




**2-rasm. 2020-2022 yillarda tarmoklar kesimida global IPO amaliyotlarni**

<sup>11</sup> [www.ey.com/eng/ipo/trends](http://www.ey.com/eng/ipo/trends)

### natijalari, mlrd AQSh dollarida<sup>12</sup>

Keltirilgan diagramma ma'lumotlaridan ayon bo'lmoqdaki, umumiy tendensiyada texnologik kompaniyalarning global IPO bozoridagi faolligi boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha yuqori. Mazkur holatni dunyoda ruy berayotgan global raqamli iqtisodiyotga o'tish va moliyaviy texnologiyalarning o'ta faol rivojlanayotganligi bilan izohlashimiz mumkin. Birgina 2021-yilda texnologik kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan global IPO operatsiyalari natijasi 149,1 milliard AQSh dollari miqdorida qo'shimcha kapitallashuvga erishilgan. Tadqiqot davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki banklarning «IPO» jarayonida harakatlar strategiyasini ishlab chiqish brokerlar va boshqa konsultantlarni aniqlash hamda jalb qilish imkoniyatini berishi isbotlandi.



**3-rasm. O'zbekistonda obligatsiyalar emitentlar soni o'zgarish dinamikasi<sup>13</sup>**

Oddiy va imtiyozli aksiyalardan tashqari obligatsiyalar ham qimmatli qog'ozlar bozorining muhim instrumentidir. Bunda obligatsiyalar milliy bozorda va xalqaro bozorda joylashtirilganligiga ko'ra milliy obligatsiyalar va yevroobligatsiyalar yoki xalqaro obligatsiyalar bozori sifatida talqin qilinadi. So'nggi yillarda obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali kapital jalb qilish amaliyotiga e'tibor qaratadigan bulsak, muomalada mavjud obligatsiyalar emitentlari sonidagi o'zgarish yillar kesimida quyidagicha (6-rasm).

Obligatsiyalar davlat hukumati, turli davlat organlari va munitsipalitetlar mablag'larni jamg'arish instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar ham qo'shimcha moliyaviy mablag'larga zarurati yuzaga kelganda korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarishlari va joylashtirishlari mumkin. Obligatsiyalarni chiqarish aksiyadorlik jamiyatlari uchun bir qator jozibador ahamiyatga ega: obligatsiya emissiyasi orqali aksiyadorlik jamiyatlari zarur mablag'larni kreditorlarning kompaniya moliyaviy ho'jalik faoliyatiga aralashuvisiz jalb qilishi mumkin. Qarz munosabatini anglatuvchi moliyaviy instrumentlar sifatida obligatsiyalar qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlar toifasiga kiritiladi. Bunday toifaga qat'iy

<sup>12</sup> [www.ey.com/eng/ipo/trends](http://www.ey.com/eng/ipo/trends)

<sup>13</sup> <https://uzcsd.uz/> asosida muallif tomonidan tuzilgan

belgilangan miqdorda dividend to‘lash belgilab qo‘yilgan imtiyozli aksiyalarni ham kiritish mumkin.

## 2-jadval

### Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining bozor kursi 2016-2023 yillardagi o‘zgarishi<sup>14</sup>

O‘ZGARISH, %	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
HMKB (AK "HAMKORBANK")	0,00%	0,00%	383,87%	38,46%	-24,97%	59,26%	98,33%	117,26%
KVTS ("KVARTS" AJ)	0,00%	0,00%	214,87%	-35,19%	-7,66%	34,12%	-16,93%	-47,13%
QZSM ("QIZILQUMSEMENT" AJ)	-0,96%	-13,18%	10,74%	6,93%	117,82%	63,44%	-46,58%	-17,60%
URTS ("UZRTSB" AJ)	0,00%	0,00%	806,34%	200,00%	60,00%	218,75%	-27,02%	-16,06%
UZMK ("UZMETKOMBINAT" AJ)	1,01%	-16,67%	215,20%	109,33%	-3,00%	222,89%	-1,67%	-26,87%
IPKY (ATIB "IPAK YO‘LI BANK")	0,00%	0,00%	21,00%	-13,22%	-4,76%	111,50%	66,67%	212,90%
SQBN (ATB "UZSANOATQURILISHBANK")	0,06%	-0,05%	-15,01%	8,00%	-17,99%	-18,75%	-27,86%	-4,49%
TRSB (XATB "TRASTBANK")	0,00%	24,93%	122,01%	144,90%	-2,78%	-20,53%	58,33%	41,15%
IPTB (ATB "IPOTEKA-BANK")	2,23%	-20,18%	-1,25%	2,13%	-15,79%	77,50%	-26,67%	11,24%
INDEX	0,34%	-7,85%	119,03%	58,24%	8,42%	128,11%	-1,71%	12,66%

2023-yilda yillik o‘shish bo‘yicha O‘zbekistondagi eng yaxshi aksiya kutilmaganda Ipak yo‘li bankining qimmatli qog‘ozlari bo‘ldi, ular yil davomida 30 so‘mdan 97 so‘mgacha o‘tdi. Ulardan keyin Hamkorbankning oddiy va imtiyozli aksiyalari mos ravishda 125 foiz va 143 foizga o‘sgan holda kuchli uchlikka kirdi.

“Toshkent” RFB listingiga kirgan TOP 10 talik aksiyadorlik jamiyatlaridan “Ipoteka-bank”, “Aloqabank”, “Trastbank”, “O‘zmetkombinat”, “Chilonzor buyum savdo kompleksi”, shuningdek, “Toshkentvino kombinati”ning qimmatli qog‘ozlari ham joy olishdi. Yil davomida ushbu aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari indeksi 13 foizga, "Toshkent" RFBning UCI indeksi esa umuman 82 foizga o‘shish ko‘rsatdi.

Shuni ta’kidlash joizki, bizning topimiz aksiyadorlarga dividend to‘lash, shuningdek, ushbu qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha savdo hajmini hisobga olmagan.

Mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari va mas’uliyati cheklangan jamiyatlar korporativ obligatsiyalar chiqarishlari mumkin. Xalqaro obligatsiyalar oxirgi yillarda davlat va aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilganligini qayd etishimiz lozim. Korporativ xalqaro obligatsiyalar, xususan korporativ yevroobligatsiyalar faqatgina davlat korxonalarini va banklari tomonidan chiqarilganligini ko‘rishimiz mumkin.

<sup>14</sup> KapDepo MCHJ Brokerlik kompaniyasi malumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

**3-jadval****Davlat korxonalari va banklari tomonidan moliya bozorlarida joylashtirilgan korporativ xalqaro obligatsiyalar<sup>15</sup>**

<b>Emitent</b>	<b>Miqdori</b>	<b>Muddati</b>	<b>Kupon foizi</b>	<b>Joylashtirish sanasi</b>
O'zsanoatqurilishbank ATB	300 mln AQSh doll	5 yil	5,75	02.12.2019
O'zmilliybank AJ	300 mln AQSh doll	5 yil	4,85	14.10.2020
Ipotekabank ATIB	300 mln AQSh doll	5 yil	5,5	19.11.2020
Ipotekabank ATIB	785 milliard sum (75 mln AQSh dollari)	3 yil	16	16.04.2021
O'zAvtoMotors AJ	300 mln AQSh doll	5 yil	4,85	04.05.2021
O'zbekneftgaz AJ	700 mln AQSh doll	7 yil	4,75	16.11.2021

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ayon bo'lmoqdaki, tijorat banklaridan O'zsanoatqurilishbank ATB, O'zmilliybank AJ va Ipotekabank ATIBlar tomonidan 5 yillik yevroobligatsiyalar joylashtirilgan. Ularning ichida O'zmilliybank AJ korporativ yevroobligatsiyalari eng past, 5,5 foiz stavkada joylashtirilganligini ta'kidlashimiz lozim. Lekin bu kupon stavka ham usha paytdagi bozor uchun nisbatan yuqori bo'lgan. Shuningdek Ipotekabank ATIB 2021 yil 16 aprelda yillik 16 foizlik kupon stavkada 785 milliard so'mlik (75 million AQSh dollari ekvivalentida) xalqaro obligatsiyalar ham joylashtirganligi e'tirofga loyiq. Bunda yevroobligatsiyalardan farqli ravishda sumda xalqaro obligatsiyalar joylashtirish orqali kapital jalb qilish emitentlarga valyuta riskidan kochish imkonini beradi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro obligatsiyalar joylashtirgan vaqtdagi kredit reytingi tahlili ko'rsatmoqdaki, reyting baxosi deyarli bir xil. Mazkur jihat boshqa tomondan suveren kredit reytingidan korporativ reytinglar yuqori bulmagan. Bu borada korporativ reytinglar yuqori bulishi uchun ham milliy fond bozori yuqori darajada bulishi shart. Yevroobligatsiyalarni xalqaro moliya bozorida kafolatli joylashtirishda, ya'ni andarrayter sifatida Deutche Bank, ABN Amro Bank, J.P.Morgan, UBS Group, Dresdner Kleinwort Wasserstein (DrKW), Citigroup kabilar ishtirok etishi ham bozor uchun o'ziga xos signal vazifasini o'taydi.

<sup>15</sup> [www.mf.uz](http://www.mf.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

**Aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro obligatsiyalarinn joylashtirish bo'yicha anderrayterlar guruhi<sup>16</sup>**

<b>Emitent</b>	<b>Obligatsii turi</b>	<b>Anderrayterlar guruxi</b>
O'zsanoatqurilishbank ATB	Evroobligatsiya	JP Morgan, Citigroup, Commerzbank, Raiffeisen Bank
O'zmilliybank AJ	Evroobligatsiya	Citibank, Natixis, SMBC Nikko, Gazprombank
Ipotekabank A GIB	Evroobligatsiya	J.P. Morgan, Raiffeisen Bank International AG, MUFG, Societe Generale
Ipotekabank ATIB	Xalqaro obligatsiya so'mda	J.P.Morgan Chase
O'zAvtoMotors AJ	Evroobligatsiya	Citigroup, MUFG, Natixis. Raiffeisen Bank International
O'zbekneftgaz AJ	Evroobligatsiya	Bank GPB International, Citigroup Global Markets, J.P. Morgan Securities i Mitsubishi UFG Securities EMEA

Qayd etish kerakki, milliy korporativ emitentlar xalqaro moliya bozoridagi amaliyoti davomida JP Morgan va Citigroup anderrayterlar guruxida eng kup ishtIROk etishgan. Bunday brend anderrayterlarning tanlanishi garchi nisbatan qimmat bulsada, yuqorida ta'kidlaganimizdek global investorlar uchun bu o'ziga xos reklama vazifasini utab beradi.

“Evroobligatsiyalarning debyut emissiyasi O'zmilliybank tomonidan Citibank (AQSh ), Natixis (Fransiya), SMBC Nikko (Yaponiya) va Gazprombank (Rossiya) kabi xalqaro miqyosda tan olingan anderrayting banklari bilan birgalikda amalga oshirildi”<sup>17</sup>. Bundan ko'rishimiz mumkinki, O'zmilliybank AJ yevroobligatsiyalar joylashtirganda to'rtta davlat moliya instituti anderrayterlar guruxini tashkil etgan. Bu jihat o'z-o'zidan anderrayterlik harajatlarining ortishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra tijorat banki aksiyalarini fond birjasida birlamchi ommaviy joylashtirish aksiyalar uchun dastlabki narx chegaralarini anderrayterlar tomonidan aniqlash aksiyalarini sotib olish bo'yicha arizalarni yig'ish uchun narx chegaralarini aniqlash va qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish narxini boshqaruv organi bilan kelishish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, korporativ emitentlarning yuqoridagilarga e'tibor qaratgan xolda xalqaro obligatsiyalarini yuqori investitsion jozibadorlikda past foizlarda joylashtira olishi ularning istiqbolda aksiyalarini global ommaviy joylashtirishlariga ham zamin bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

<sup>16</sup> Emitentlar saytlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>17</sup> <https://review.uz/oz/posl/milliy-bankning-ilk-cvroobligatsiyalari-xalqaro-kapital-bozorida-joylashtirildi>

Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi samaradorligini oshirish bugungi kunda yaxlit va strategik yondashuvlarni talab etmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitalini ko'paytirishning muayyan yondashuvlari iqtisodiy samaradorlikka qay darajada ta'sir qilishini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotga ko'ra fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalar bahosiga ta'sir etuvchi omillar sifatida mustaqil o'zgaruvchilar quyidagicha ifodalandi.

**Sh\_Price**- Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalar bahosi (bog'liq o'zgaruvchi),

**ROE**-Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalning rentabelligi (%)da

$$ROE = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{o'z kapitali}} - (\text{mustaqil o'zgaruvchi}),$$

**ROA**- Aksiyadorlik jamiyatlari aktivlar rentabelligi (%)da

$$ROA = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{jami aktivlar}} - (\text{mustaqil o'zgaruvchi}),$$

$$Net\_Profit = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{jami daromad}} \% \text{ da } (\text{mustaqil o'zgaruvchi}),$$

Tadqiqot bo'yicha ekonometrik modelni qurishda quyidagi gipotezalar o'z aksini topdi.

**Nol gipteza ( $H_0$ ):** Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalar bahosi, Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalning rentabelligi % ko'rsatkichi, Aksiyadorlik jamiyatlari aktivlar rentabelligi foiz ko'rsatkichi hamda sof foydaning jami daromaddagi % dagi ulushi ushbu o'zgaruvchilar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjud.

**Muqobil gipteza ( $H_a$ ):** Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalar bahosi, Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalning rentabelligi % ko'rsatkichi, Aksiyadorlik jamiyatlari aktivlar rentabelligi foiz ko'rsatkichi hamda sof foydaning jami daromaddagi % dagi ulushi ushbu o'zgaruvchilar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjud emas.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning har biri bo'yicha o'zaro korrelatsion bog'liqlik matritsasi ishlab chiqdik.

## 5-jadval

### Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning o'zaro korrelyatsion matritsasi <sup>18</sup>

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
(1) Sh_Price	1.000				
(2) ROE	0.4526 (0.0836)	1.000			*
(3) ROA	- 0.4424 (0.0391)	0.3960 (0.0681)	1.000		***
(4) Net_profit	0.5297 (0.0065)	0.7273 (0.000)	0.2107 (0.3466)	1.000	***

6-jadvaldagi natijalar shuni ko'rsatdiki bog'liq o'zgaruvchi va uning ta'sir etuvchi omillari o'rtasidagi aniq, mustahkam va teskari korrelyatsion bog'liqlikni ko'rsatdi. Bundan tashqari, 1-jadvalda keltirilgan korrelyatsiya matritsasi bog'liq o'zgaruvchilar o'rtasida multikollinearlik holati mavjud emasligi aniqlandi. Keyingi bosqichda ekonometrik modellarning parametrlari, jumladan, birlashtirilgan oddiy eng kichik kvadratlar (POLSE) baholovchisi, qat'iy belgilangan

<sup>18</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi

ta'sirlar baholovchisi (FEE) va tasodifiy ta'sirlar baholovchisi (REE) baholandi. Bundan tashqari, Pooled OLS stimator (POLSE) modelini baholash uchun ShapIPO-Wilk va Durbin Watson testlari o'tkazildi.

Shu bilan birga Hausman testi orqali model ko'rsatkichlarining Fixed Effects Estimator (FEE) va Random effects estimator (REE) uchun muvofiqligini baholash uchun tekshirildi hamda multikollinearlik mavjudligini ko'rsatuvchi (VIF) ko'rsatkichi baholandi.

#### 4-jadval

#### Tadqiqot bo'yicha panel ma'lumotlari asosidagi ekonometrik modellar ko'rsatkichlari<sup>19</sup>

<i>Model ko'rsatkichlari</i>	<i>1-model</i>	<i>2- model</i>	<i>3-model</i>
	<i>POLSE modeli</i>	<i>FEE modeli</i>	<i>REE modeli</i>
<b>Sh_Price</b>	*	*	*
<b>ROE</b>	0.33*** (0.19)	0.35 (0.26)	0.33*** (0.19)
